O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

# AHOLI VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA DAVLAT XIZMATLARIDAN FOYDALANISHDA YANADA QULAY SHAROITLAR YARATISH, BU BORADA BYUROKRATIK TO‘SIQLARNI QISQARTIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

So‘nggi yillarda aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimi isloh qilinib, ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, ayrim turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi, ma’muriy tartib-taomillardan o‘tish muddatlari sezilarli ravishda qisqartirildi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan beriladigan bir qator ma’lumotnomalar bekor qilindi.

Shu bilan birga, davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa davlat tashkilotlarida eskirgan byurokratik tartibotlar, shu jumladan elektron tizim orqali olish imkoniyati mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni qog‘oz ko‘rinishida so‘rab olish, ish faoliyatini tashkil etish uchun muhim bo‘lmagan hujjatlarni talab qilish natijasida aholi va tadbirkorlik subyektlarini ovora qilish amaliyoti saqlanib qolmoqda.

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash va davlat xizmatlarini ko‘rsatishda byurokratizm, sansalorlik va boshqa ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish, eskirgan, zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni tubdan qisqartirish maqsadida:

1. 2021-yil 1-iyundan boshlab shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

fuqarolarning doimiy (vaqtincha) ro‘yxatdan o‘tgan joyidan qat’i nazar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish, nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish eksterritorial tamoyil asosida amalga oshiriladi;

notarial harakatlarni amalga oshirishda fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari bilan bog‘liq barcha ma’lumotlar notarial idoralar tomonidan mustaqil ravishda, fuqarolardan ortiqcha ma’lumot talab qilmasdan, “FHDYning yagona elektron arxivi” axborot tizimi orqali olinadi;

tadbirkorlik subyekti bo‘lgan yuridik shaxslarga davlat xizmatlaridan foydalanish uchun belgilangan yig‘im va davlat boji to‘lovlarini to‘lashda ularning vakili tomonidan naqd pul shaklida to‘lovni amalga oshirishga ruxsat beriladi;

xorijiy tijorat tashkilotlarining O‘zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatxona xodimini akkreditatsiya qilishda unda odamning immunitet tanqisligi virusi kasalligi yo‘qligi to‘g‘risidagi sertifikatni talab qilish amaliyoti bekor qilinadi;

davlat xizmatlari markazlari orqali xizmatlardan foydalanishda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ortiqcha to‘langan to‘lovlar, shuningdek, davlat xizmatini tezlashtirilgan tartibda ko‘rsatish uchun qo‘shimcha to‘langan yig‘imlar summasi (tezlashtirilgan tartibda ko‘rsatilmagan taqdirda) soddalashtirilgan tartibda Davlat xizmatlari agentligining (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) budjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan bir ish kuni ichida qaytariladi. Bunda qaytarib berilgan mablag‘lar Agentlik tomonidan tegishli davlat organlari va tashkilotlaridan regress tartibida undirib olinadi;

davlat xizmatini ko‘rsatish natijasida beriladigan hujjatlar QR-kod (matrik shtrixli kod) qo‘yish orqali berilganda ularning dublikatlarini berish tartibi bekor qilinadi. Bunda, ushbu hujjatlar elektron shaklda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali cheklanmagan miqdorda bepul olinadi.

2. Quyidagilar:

Ayrim turdagi ma’lumotlar va elektron ko‘rinishdagi hujjatlarni “Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasidan foydalangan holda berish uchun mas’ul bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

2021-yil 1-maydan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining xohishiga ko‘ra ko‘rsatilgan davlat xizmatining natijasi pochta aloqasi orqali yetkaziladigan davlat xizmatlari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Ayrim turdagi davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish va optimallashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bosh vazir maslahatchisi O.M. Umarov mazkur Farmonga 1-ilovada ko‘rsatilgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 1-mayga qadar axborot xavfsizligi talablariga rioya etgan holda ularning idoraviy axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalarida mavjud va davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan axborot va ma’lumotlarning “Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasiga integratsiya qilinishini ta’minlasin.

Bosh vazir maslahatchisi O.M. Umarov hamda vazirlik va idoralar rahbarlari zimmasiga elektron ma’lumot bazalarini o‘z vaqtida va sifatli shakllantirish, ma’lumotlarni raqamlashtirish, ma’lumotlar hamda elektron ko‘rinishdagi hujjatlarni muddatida berish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

4. Belgilansinki, 2021-yil 1-iyundan boshlab davlat organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan aholidan, shu jumladan tadbirkorlik subyektlaridan:

a) quyidagi faktlarni tasdiqlovchi hujjatlarni:

ruhiy kasalliklar bo‘yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi;

narkologiya bo‘yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi;

sudlanganlik;

manzil-ma’lumot axboroti;

fuqaroning nomida shaxsiy uy-joy mavjud yoki mavjud emasligi;

turar joyning maydoni;

soliq qarzi mavjud yoki mavjud emasligi;

soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yilganligi;

pensiya va nafaqa miqdori;

pensiya va nafaqa oluvchilar ro‘yxatida mavjud yoki mavjud emasligi;

nikoh qayd etilganligi, nikohda turmasligi yoki nikohdan ajralganligi;

b) quyidagi hujjatlarni:

shaxsni tasdiqlovchi hujjatning nusxasi;

shaxsning belgilangan shakldagi fotosurati;

tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining ma’lumotnomalari;

mehnat daftarchalari va ularning nusxalari (fuqarolarga pensiya tayinlash jarayonida ushbu hujjatni “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi orqali olish imkoniyati mavjud bo‘lmagan hollarda so‘rash bundan mustasno);

ish haqi va ish stajini, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasasida o‘qiganlikni tasdiqlovchi arxiv ma’lumotnomalari (fuqarolarga pensiya tayinlash jarayonida ushbu hujjatni “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi orqali olish imkoniyati mavjud bo‘lmagan hollarda so‘rash bundan mustasno);

kadastr hujjatlari va ularning nusxalarini talab qilish bekor qilinadi.

Bunda, davlat organlari va tashkilotlari jismoniy shaxslarga davlat xizmatlarini ko‘rsatishda, ishga qabul qilish jarayonida va boshqa ma’muriy tartib-taomillarni amalga oshirishda mazkur bandda nazarda tutilgan hujjat va ma’lumotlarni ushbu Farmonga 1-ilovada belgilangan mas’ul davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda, shu jumladan “Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali so‘rab oladi.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan hujjat yoki ma’lumotlarning davlat organlari va tashkilotlari tomonidan aholidan talab qilinishi davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish deb hisoblansin.

5. Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

2021-yil 1-maydan boshlab xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish uchun ariza-anketani va davlat boji to‘lovini elektron tarzda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilish imkonini yaratish;

2021-yil 1-iyundan boshlab 16 yoshga to‘lgan shaxslarga identifikatsiya ID-kartalari berish ularni davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish hamda fuqaroni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yish bilan bir vaqtning o‘zida amalga oshirish tizimini joriy etish;

2021-yil 1-iyuldan boshlab soliq organlarida soliq to‘lovchilarning hisobini yuritish jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamidan foydalangan holda amalga oshirishga o‘tish. Bunda, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini berish va fuqaroni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga qo‘yish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish bekor qilinadi.

Belgilab qo‘yilsinki:

jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami barcha davlat, bank, ijtimoiy va boshqa xizmatlarni ko‘rsatishda fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi yagona identifikator hisoblanadi;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxslarni identifikatsiya qiladigan alohida raqamlarni yuritish taqiqlanadi.

6. Davlat soliq qo‘mitasi Davlat personallashtirish markazi va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-iyulga qadar:

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hamda O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning mavjud soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini ularning jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami bilan o‘zaro bog‘lash ishlarini yakunlasin;

soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami mavjud bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining hamda O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami orqali soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yilishini ta’minlasin.

7. Belgilab qo‘yilsinki, 2021-yil 1-iyundan boshlab:

Agentlik yuridik shaxslarni (nodavlat notijorat tashkilotlari, banklar va kredit byurolaridan tashqari) davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha yagona vakolatli organ hisoblanadi;

davlat organlari va tashkilotlari, yuridik shaxslar birlashmalari, bog‘dorchilik-uzumchilik shirkatlari, matlubot, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi kooperativlari hamda advokatlik tuzilmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish davlat xizmatlari markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

8. Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat personallashtirish markazi va Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi 2021-yil 1-mayga qadar o‘zlarining axborot tizimlarini “FHDYning yagona elektron arxivi” axborot tizimiga integratsiya qilishni ta’minlasin. Bunda, jismoniy shaxsning o‘limi qayd qilingan kundan boshlab 10 kun ichida:

Ichki ishlar vazirligi — vafot etgan shaxsning fuqarolik pasporti yoki ID-kartasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning yashash guvohnomalari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning harakatlanish hujjatlari, haydovchilik guvohnomalari hisobdan chiqarilishini, agar fuqaro qidiruvda bo‘lsa, qidiruv va jinoyat-protsessual ishlariga (hujjatlariga) tegishli ma’lumotlar kiritilishini;

Mudofaa vazirligi — vafot etgan shaxs harbiy ro‘yxatdan chiqarilishini;

Tashqi ishlar vazirligi — vafot etgan chet el fuqarolari va chet elda doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bo‘yicha tegishli xorijiy davlatga yoki uning O‘zbekistondagi vakolatxonasiga xabar berilishini;

Sog‘liqni saqlash vazirligi — vafot etgan shaxs nogironligi bo‘lgan shaxslar ro‘yxatidan chiqarilishini;

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi — vafot etgan shaxs “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi hisobidan chiqarilishini;

Davlat soliq qo‘mitasi — soliq qarzi mavjud bo‘lmagan vafot etgan shaxs soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan chiqarilishini;

budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi — vafot etgan shaxsning dafn marosimi uchun bir martalik nafaqa tayinlanishini va unga boshqa turdagi pensiya va nafaqalar hisoblanishi to‘xtatilishini;

Davlat xizmatlari agentligi — vafot etgan yakka tartibdagi tadbirkorning Tadbirkorlik subyektlarining Yagona davlat reyestrida faoliyati tugatilgan maqomiga o‘tkazilishini ta’minlasin.

2021-yil 1-maydan boshlab FHDY organlarining ushbu bandda belgilangan organlarga jismoniy shaxsning o‘limi qayd qilinganligi haqidagi ma’lumotni taqdim etish majburiyati bekor qilinsin.

9. 2021-yil 1-iyundan boshlab:

fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan davlat statistika organlariga dalolatnoma yozuvlarining nusxalarini yuborish va hisobotlarni topshirish amaliyoti bekor qilinsin. Bunda, davlat statistika organlari “FHDYning yagona elektron arxivi” axborot tizimiga o‘zlarining elektron tizimlarini integratsiya qilgan holda ushbu ma’lumotlarni real vaqt rejimida oladi va statistik hisobotlarni shakllantiradi;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Agentlik va davlat xizmatlari markazlaridan so‘rash to‘xtatilsin. Bunda, mazkur tashkilotlar tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimidan mustaqil ravishda oladi.

10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

mazkur Farmonga 1-ilovada nazarda tutilgan davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda ikki oy muddatda ularning “Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasiga ulanishini hamda barcha davlat organlari va tashkilotlariga mazkur tizimdan foydalanish imkoni yaratilishini ta’minlasin;

uch oy muddatda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlaridan foydalanishda ariza-so‘rovnomalarni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash talabini bekor qilish hamda identifikatsiya qilishning zamonaviy vositalarini joriy qilish orqali foydalanuvchilarga tizimga kirish va undan foydalanish uchun qulay imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

11. Adliya vazirligi:

Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda fuqarolar tomonidan ortiqcha to‘langan to‘lovlar, vakolatli idoralar tomonidan o‘z vaqtida ko‘rib chiqilmagan hamda rad etilgan murojaatlar bo‘yicha, shuningdek, tezlashtirilgan tartibda davlat xizmati ko‘rsatilmaganligi uchun qo‘shimcha undirilgan yig‘imlar summasini soddalashtirilgan tartibda qaytarish tartibini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin;

ayrim turdagi davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish va optimallashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning ijrosi bo‘yicha barcha zarur choralar ko‘rilishini, mazkur Farmonning o‘z vaqtida ijro etilishida mas’ul tashkilotlarga har tomonlama uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatilishini ta’minlasin, shuningdek, har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga uning amalga oshirilishi jarayoni to‘g‘risida batafsil ma’lumot taqdim etsin.

12. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda mazkur Farmonning mazmun-mohiyati ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

13. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil etishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir maslahatchisi O.M. Umarov, adliya vaziri R.K. Davletov hamda Davlat xizmatlari agentligi direktori U.I. Muxammadiyev belgilansin.

Mazkur Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan 2021-yil 1-iyul va 2022-yil 1-yanvargacha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berilsin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2021-yil 23-mart,
PF-6191-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil
23-martdagi PF-6191-son Farmoniga
1-ILOVA

**Ayrim turdagi ma’lumotlar va elektron ko‘rinishdagi hujjatlarni “Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasidan foydalangan holda berish uchun mas’ul bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlari**

RO‘YXATI

| **T/r** | **Ma’lumot va hujjatlar nomi** | **Ma’lumot va hujjatlarni berish uchun mas’ul vakolatli organlar** |
|---|---|---|
| 1. | Ruhiy kasalliklar bo‘yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi to‘g‘risida ma’lumot | Sog‘liqni saqlash vazirligi |
| 2. | Narkologiya bo‘yicha dispanser hisobida turishi yoki turmasligi to‘g‘risida ma’lumot | |
| 3. | Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalarining ma’lumotnomalari | |
| 4. | Sudlanganlik haqida ma’lumot | Ichki ishlar vazirligi |
| 5. | Manzil-ma’lumot axboroti | Ichki ishlar vazirligi, Davlat personallashtirish markazi |
| 6. | Pasport ma’lumotlari | |
| 7. | Shaxsning fotosurati | |
| 8. | Soliq qarzi mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risida ma’lumot | Davlat soliq qo‘mitasi |
| 9. | Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yilganligi to‘g‘risida ma’lumot | |
| 10. | Fuqaroning nomida shaxsiy uy-joy mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risida ma’lumot | Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi |
| 11. | Turar joyning maydoni to‘g‘risida ma’lumot | |
| 12. | Kadastr hujjati ma’lumotlari | |

| | | |
|---|---|---|
| 13. | Pensiya va nafaqa miqdori to‘g‘risidama’lumot | Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi |
| 14. | Pensiya va nafaqa oluvchilar ro‘yxatida mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risida ma’lumot | |
| 15. | Ish stajini tasdiqlovchi ma’lumotlar | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi |
| 16. | Ish haqi va ish stajini tasdiqlovchi arxiv ma’lumotnomasi | “O‘zarxiv” agentligi, vazirlik va idoralar |
| 17. | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasasida o‘qiganlikni tasdiqlovchi arxiv ma’lumotnomasi | “O‘zarxiv” agentligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi |
| 18. | Tug‘ilish, o‘lim, nikohni qayd etish va nikohdan ajralganlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar | Davlat xizmatlari agentligi |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil
23-martdagi PF-6191-son Farmoniga
2-ILOVA

**2021-yil 1-maydan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining xohishiga ko‘ra ko‘rsatilgan davlat xizmatining natijasi pochta aloqasi orqali yetkaziladigan davlat xizmatlari**

RO‘YXATI*

1. Sudlardan chiqadigan rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish.
2. Ta’lim va fan sohasi tashkilotlaridan chiqadigan rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish.
3. Ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjat dublikatini taqdim etish.
4. Xorijiy davlatlarda umumiy o‘rta va o‘rta, oliy ta’lim olganlik to‘g‘risida hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash.
5. Xorijiy davlatlarda ilmiy daraja olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash.
6. O‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga sanatoriylarda imtiyozli davolanishi uchun yo‘llanmalar berish.
7. Haydovchilik guvohnomasini berish, almashtirish va yo‘qolganlari o‘rniga yangisini berish.
8. Odamning immunitet tanqisligi virusi mavjud emasligi to‘g‘risida sertifikat berish.
9. Avtomototransport vositalari va tirkamalarga (yarim tirkamalarga) ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarini berish va qayd etish guvohnomasini berish.
10. Avtomototransport vositalari va tirkamalarga (yarim tirkamalarga) tranzit ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgisini berish.
11. Bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish uchun yo‘llanma berish.
12. Qurilish loyihalarini ekspertizadan o‘tkazadigan shaxslarni akkreditatsiya qilish.
13. Mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderi berish.
14. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va reyestrdan ko‘chirma berish.
15. Ipoteka hamda binolar va inshootlarga bo‘lgan ashyoviy huquqlar ipotekasi to‘g‘risidagi shartnomalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.
16. Kadastr ishini tayyorlash va ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr pasportini rasmiylashtirish.
17. O‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) to‘g‘risidagi kelishuvni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va reyestrdan ko‘chirma berish.
18. Ixtiroga patent berish.
19. Foydali modelga patent berish.
20. Sanoat namunasiga patent berish.
21. Seleksiya yutug‘iga patent berish.
22. Integral mikrosxemalar topologiyalarini ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma berish.
23. Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to‘g‘risida guvohnoma berish.
24. Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisiga doir guvohnoma berish.
25. Muhtoj shaxslarga protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiya texnik vositalari va kreslo-aravachalar yetkazib berish.
26. Keksa va nogironligi bo‘lgan shaxsni yolg‘iz yashaydigan yoki yolg‘iz keksa va nogironligi bo‘lgan shaxs deb e’tirof etish.
27. Fuqarolik holatini qayd etish hujjatlarini berish.
28. Imtiyozli toifaga kiruvchi bemorlarga order berish.

** Davlat xizmatlarining natijasi pochta aloqasi orqali yetkazilganda pochta xizmatlari uchun amalga oshiriladigan to‘lovlar davlat xizmatidan foydalanuvchi hisobidan amalga oshiriladi.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil
23-martdagi PF-6191-son Farmoniga
3-ILOVA

**Ayrim turdagi davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish va optimallashtirish bo‘yicha**

“YO‘L XARITASI”

| T/r | Tadbirlarning nomlanishi | Amalga oshirish shakli | Bajarish muddati | Mas’ul ijrochilar | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Vazirlik va idoralardan | Vazirlar Mahkamasidan |
| 1. | Davlat organlari va tashkilotlari, yuridik shaxslar birlashmalari, bog‘dorchilik-uzumchilik shirkatlari, matlubot, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi kooperativlari hamda advokatlik tuzilmalarini davlat xizmatlari markazlari orqali davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartiblarini ishlab chiqish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihalari | 2021-yil may | Adliya vazirligi *(R. Davletov)*, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi *(A. Ortiqov)*, Qishloq xo‘jaligi vazirligi *(J. Xodjayev)* | D. Kalandarov, E. Rustamov, T. Rapikov |

НБДЗ: № 06/21/6191/0229
от 24.03.2021 г.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
**FARMONI**

2021 yil «23» марта №УП–6191

## О дополнительных мерах по дальнейшему созданию благоприятных условий для населения и субъектов предпринимательства при пользовании государственными услугами, сокращению бюрократических барьеров в данном направлении

В последние годы в стране реформирована система оказания государственных услуг населению, реализуются последовательные меры по кардинальному улучшению делового климата, устранению излишних бюрократических барьеров.

В частности, отменены некоторые виды лицензий и разрешений, существенно сокращены сроки прохождения административных процедур, отменен ряд справок, выдаваемых органами самоуправления граждан.

Наряду с этим, в связи с применением в государственных органах, органах исполнительной власти на местах и иных государственных организациях устаревших бюрократических процедур, включая истребования справок в бумажном виде, которые можно получить посредством электронной системы, и незначительных для организации работы документов, сохраняется практика излишнего беспокойства граждан и субъектов предпринимательства.

В целях обеспечения исполнения задач, определенных в Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах в «Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения», а также искоренения бюрократизма, волокиты и иных административных барьеров при оказании государственных услуг, кардинального сокращения устаревших, не соответствующих современным требованиям процедур:

**1.** Установить порядок, в соответствии с которым начиная с 1 июня 2021 года:

регистрация актов гражданского состояния, медицинское обследование лиц, вступающих в брак, и оформление биометрического паспорта для выезда за границу осуществляются по экстерриториальному принципу независимо от места постоянной (временной) регистрации граждан;

при осуществлении нотариальных действий все сведения, связанные с записями актов гражданского состояния, получаются нотариальными конторами самостоятельно, без истребования у граждан излишних справок, через информационную систему «Единый электронный архив ЗАГС»;

юридическим лицам, являющимся субъектами предпринимательства, при оплате сборов и государственных пошлин, установленных за пользование государственными услугами, разрешается осуществление оплаты в наличной форме через своих представителей;

отменяется практика истребования сертификата об отсутствии ВИЧ-инфекции при аккредитации сотрудников представительств зарубежных коммерческих организаций на территории Республики Узбекистан;

суммы платежей, излишне уплаченные физическими и юридическими лицами при пользовании услугами через центры государственных услуг, а также суммы сборов, дополнительно уплаченные за оказание государственных услуг в ускоренном порядке (в случае неоказания услуг в ускоренном порядке), возвращаются в упрощенном порядке за счет средств внебюджетного фонда Агентства государственных услуг (далее – Агентство) в течение одного рабочего дня. При этом возвращенные средства взыскиваются Агентством с соответствующих государственных органов и организаций в порядке регресса;

отменяется порядок предоставления дубликатов документов, выдаваемых путем проставления QR-кода (матричного штрих кода) при оказании государственных услуг. При этом данные документы получаются в электронной форме бесплатно и в неограниченном количестве через Единый портал интерактивных государственных услуг.

**2.** Утвердить:

Перечень государственных органов и организаций, ответственных за предоставление отдельных видов сведений и документов в электронном виде посредством межведомственной интеграционной платформы системы «Электронное правительство», согласно приложению № 1;

Перечень государственных услуг, результаты оказания которых с 1 мая 2021 года по желанию граждан и субъектов предпринимательства доставляются посредством почтовой связи, согласно приложению № 2;

«Дорожную карту» по упрощению и оптимизации процедур оказания некоторых видов государственных услуг согласно приложению № 3*.

**3.** Советнику Премьер-министра Умарову О.М. совместно с министерствами и ведомствами, перечисленными в приложении № 1 к настоящему Указу, в срок до 1 мая 2021 года обеспечить интеграцию с межведомственной интеграционной платформой системы «Электронное правительство» сведений и данных, содержащихся в их информационных системах, ресурсах и базах данных, а также необходимых для оказания государственных услуг, с соблюдением требований информационной безопасности.

Возложить на советника Премьер-министра Умарова О.М., а также руководителей министерств и ведомств персональную ответственность за своевременное и качественное формирование электронных баз данных, оцифровку информации, предоставление сведений и документов в электронном виде в установленные сроки.

**4.** Установить, что начиная с 1 июня 2021 года отменяется истребование государственными органами, хозяйственными объединениями, органами исполнительной власти на местах, государственными организациями и учреждениями от населения и субъектов предпринимательства:

а) документов, подтверждающих следующие факты:

нахождение или отсутствие на учете в психоневрологическом диспансере;

нахождение или отсутствие на учете в наркологическом диспансере;

наличие или отсутствие судимости;

адресно-справочную информацию;

наличие либо отсутствие личного жилья на имени гражданина;

площадь жилого помещения;

наличие или отсутствие налоговой задолженности;

постановка физического лица – налогоплательщика на учет в органах государственной налоговой службы;

размер пенсии и пособия;

нахождение или отсутствие в списке получателей пенсий и пособий;

регистрация брака, отсутствие регистрации брака или расторжение брака;

б) нижеследующих:

копию документа, удостоверяющего личность;

фотографию лица установленной формы;

справки медико-социальных экспертных комиссий;

трудовых книжек и их копий (за исключением случаев истребования в процессе назначения пенсии гражданам при отсутствии возможности получения данного документа через межведомственный аппаратно-программный комплекс «Единая национальная система труда»);

архивных справок, подтверждающих заработную плату и стаж работы, обучение в высших и средних специальных образовательных учреждениях (за исключением случаев истребования в процессе назначения пенсии гражданам при отсутствии возможности получения данного документа через межведомственный аппаратно-программный комплекс «Единая национальная система труда»);

кадастровых документов и их копий.

При этом в процессе оказания государственных услуг физическим лицам, при приеме на работу и выполнении иных административных процедур государственные органы и организации самостоятельно запрашивают у ответственных государственных органов и организаций, указанных в приложении № 1 к настоящему Указу, документы и справки, предусмотренные настоящим пунктом, в том числе через межведомственную интеграционную платформу системы «Электронное правительство».

Истребование государственными органами и организациями у населения документов или справок, предусмотренных настоящим пунктом, признается нарушением требований актов законодательства в сфере оказания государственных услуг.

**5.** Одобрить предложения Министерства юстиции, Министерства внутренних дел, Министерства по развитию информационных технологий и коммуникаций, Министерства финансов и Государственного налогового комитета о:

НБДЗ: № 06/21/6191/0229
от 24.03.2021 г.



предоставлении начиная с 1 мая 2021 года возможности приема анкеты-заявления на оформление биометрического паспорта для выезда за границу и оплаты государственной пошлины в электронной форме через Единый портал интерактивных государственных услуг;

внедрении начиная с 1 июня 2021 года системы выдачи идентификационных ID-карт лицам, достигшим 16 лет, одновременно с постановкой их на учет в органах государственной налоговой службы в качестве налогоплательщиков, а также в накопительной пенсионной системе;

переходе начиная с 1 июля 2021 года на ведение учета налогоплательщиков в налоговых органах с использованием персонального идентификационного номера физического лица. При этом отменяется оказание государственных услуг по выдаче идентификационного номера налогоплательщика и постановке граждан на учет в пенсионной накопительной системе.

Установить, что:

персональный идентификационный номер физического лица является единым идентификатором, удостоверяющим личность гражданина при оказании всех государственных, банковских, социальных и иных услуг;

ведение государственными органами и организациями отдельных номеров, идентифицирующих физические лица, категорически запрещается.

**6.** Государственному налоговому комитету совместно с Государственным центром персонализации и Министерством внутренних дел до 1 июля 2021 года:

завершить работы по взаимной привязке действующих идентификационных номеров налогоплательщика граждан Республики Узбекистан, а также иностранных граждан и лиц без гражданства, имеющих вид на жительство в Республике Узбекистан, с их персональными идентификационными номерами физического лица;

обеспечить постановку на учет в качестве налогоплательщика граждан Республики Узбекистан, а также иностранных граждан и лиц без гражданства, имеющих вид на жительство в Республике Узбекистан, у которых отсутствует идентификационный номер налогоплательщика, через персональный идентификационный номер физического лица.

**7.** Определить, что начиная с 1 июня 2021 года:

Агентство является единым уполномоченным органом по государственной регистрации юридических лиц (за исключением негосударственных некоммерческих организаций, банков и кредитных бюро);

государственная регистрация государственных органов и организаций, объединений юридических лиц, садово-виноградарских товариществ, потребительских, производственных и сельскохозяйственных кооперативов, а также адвокатских структур осуществляется центрами государственных услуг.

**8.** Министерству внутренних дел, Министерству обороны, Министерству иностранных дел, Министерству здравоохранения, Министерству занятости и трудовых отношений, Государственному налоговому комитету, Государственному центру персонализации и внебюджетному Пенсионному фонду при Министерстве финансов до 1 мая 2021 года обеспечить интеграцию своих информационных систем с информационной системой «Единый электронный архив ЗАГС». При этом в течение 10 дней со дня регистрации смерти физического лица обеспечить:

Министерству внутренних дел – снятие с учета паспорта или ID-карты, а также вида на жительство иностранных граждан и лиц без гражданства, постоянно проживающих на территории Республики Узбекистан, проездных документов лиц без гражданства, водительских удостоверений, в случае если лицо находилось в розыске – внесение соответствующих сведений в розыскные и уголовно-процессуальные дела (документы) умершего лица;

Министерству обороны – снятие умершего лица с воинского учета;

Министерству иностранных дел – направление извещения соответствующему зарубежному государству или его представительству в Узбекистане о его умершем гражданине и лице без гражданства, постоянно проживающем за границей;

Министерству здравоохранения – исключение умершего лица из списка лиц с инвалидностью;

Министерству занятости и трудовых отношений – снятие умершего лица с учета в межведомственном программно-аппаратном комплексе «Единая национальная система труда»;

Государственному налоговому комитету – снятие умершего лица, не имеющего налоговой задолженности, с учета в качестве налогоплательщика;

внебюджетному Пенсионному фонду – назначение пособия на погребение умершего лица и прекращение начисления ему других видов пенсий и пособий;

Агентству государственных услуг – перевод умершего индивидуального предпринимателя в статус прекратившего деятельность в Едином государственном реестре субъектов предпринимательства.

Отменить начиная с 1 мая 2021 года обязательство органов ЗАГС по представлению данных о регистрации смерти физического лица органам, указанным в настоящем пункте.

**9.** Начиная с 1 июня 2021 года:

отменить практику направления органами записи актов гражданского состояния копий записей актов и сдачи отчетов государственным органам статистики. При этом государственные органы статистики получают указанные сведения в режиме реального времени и формируют статистические отчеты путем интеграции своих электронных систем с информационной системой «Единый электронный архив ЗАГС»;

прекратить практику запрашивания правоохранительными органами, Антимонопольным комитетом и Агентством по управлению государственными активами данных о субъектах предпринимательства у Агентства и центров государственных услуг. При этом данные организации получают сведения о субъектах предпринимательства самостоятельно через Автоматизированную систему государственной регистрации и постановки на учет субъектов предпринимательства.

**10.** Министерству по развитию информационных технологий и коммуникаций:

совместно с государственными органами и организациями, перечисленными в приложении № 1 к настоящему Указу, в двухмесячный срок обеспечить их подключение к межведомственной интеграционной платформе системы «Электронное правительство» и возможность пользования данной системой всеми государственными органами и организациями;

в трехмесячный срок внести в Кабинет Министров предложения об отмене требования подтверждения электронной цифровой подписью заявлений-анкет при доступе к государственным услугам через Единый портал интерактивных государственных услуг и создании пользователям благоприятных возможностей для входа и пользования системой путем внедрения современных средств идентификации.

**11.** Министерству юстиции:

совместно с Министерством финансов в двухмесячный срок внести в Кабинет Министров порядок возврата в упрощенном порядке сумм платежей, излишне уплаченных физическими и юридическими лицами, сборов, дополнительно уплаченных за несвоевременно рассмотренные и отказанные обращения, а также за не оказанные в ускоренном порядке государственные услуги;

совместно с заинтересованными министерствами и ведомствами в трехмесячный срок внести в Кабинет Министров предложения об изменениях и дополнениях в законодательство, вытекающих из настоящего Указа;

обеспечить принятие всех необходимых мер для реализации «Дорожной карты» по упрощению и оптимизации процедур оказания некоторых видов государственных услуг, оказание всесторонней методической и практической помощи организациям, ответственным за своевременное исполнение настоящего Указа, а также ежеквартально вносить в Администрацию Президента Республики Узбекистан подробную информацию о ходе исполнения настоящего Указа;

**12.** Агентству информации и массовых коммуникаций совместно с Национальным информационным агентством Узбекистана и Национальной телерадиокомпанией Узбекистана обеспечить широкое освещение в средствах массовой информации сути и содержания настоящего Указа.

**13.** Возложить на советника Премьер-министра Умарова О.М., министра юстиции Давлетова Р.К. и директора Агентства государственных услуг Мухаммадиева У.И. персональную ответственность за эффективную организацию исполнения настоящего Указа.

Обсуждение хода исполнения настоящего Указа, а также осуществление координации и контроля за деятельностью ведомств, ответственных за его исполнение, возложить на руководителя Администрации Президента Республики Узбекистан Низомиддинова З.Ш.

О результативности осуществляемых мер информировать Президента Республики Узбекистан до 1 июля 2021 года и 1 января 2022 года.

**Президент**
**Республики Узбекистан** **Ш.Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

город Ташкент

---

* приложение № 3 приводится на узбекском языке.

НБДЗ: № 06/21/6191/0229
от 24.03.2021 г.

Приложение № 1
к Указу Президента Республики Узбекистан
от 23 марта 2021 года № УП–6191

# ПЕРЕЧЕНЬ
## государственных органов и организаций, ответственных за предоставление отдельных видов сведений и документов в электронном виде посредством межведомственной интеграционной платформы системы «Электронное правительство»

| № | Наименование сведений и документов | Уполномоченные органы, ответственные за предоставление сведений и документов |
|---|---|---|
| 1. | Сведения о нахождении или отсутствии на учете в психоневрологическом диспансере | Министерство здравоохранения |
| 2. | Сведения о нахождении или отсутствии на учете в наркологическом диспансере | |
| 3. | Справки медико-социальных экспертных комиссий | |
| 4. | Справка о судимости | Министерство внутренних дел |
| 5. | Адресно-справочная информация | Министерство внутренних дел, Государственный центр персонализации |
| 6. | Паспортные данные | |
| 7. | Фотография лица | |
| 8. | Сведения о наличии либо отсутствии налоговой задолженности | Государственный налоговый комитет |
| 9. | Сведения о постановке физического лица – налогоплательщика на учет в органах государственной налоговой службы | |
| 10. | Сведения о наличии либо отсутствии личного жилья на имени гражданина | Агентство по кадастру при Государственном налоговом комитете |

| | | |
|---|---|---|
| **11.** | Сведения о площади жилого помещения | |
| **12.** | Сведения кадастровой документации | |
| **13.** | Сведения о размере пенсий и пособий | Внебюджетный Пенсионный фонд при Министерстве финансов |
| **14.** | Сведения о нахождении либо отсутствии в списке получателей пенсий и пособий | |
| **15.** | Сведения, подтверждающие трудовой стаж | Министерство занятости и трудовых отношений |
| **16.** | Архивная справка о подтверждении заработной платы и трудового стажа | Агентство «Узархив», министерства и ведомства |
| **17.** | Архивная справка о подтверждении обучения в высшем и среднем специальном образовательном учреждении | Агентство «Узархив», Министерство высшего и среднего специального образования |
| **18.** | Сведения о рождении, смерти, заключении брака и расторжении брака | Агентство государственных услуг |

Приложение № 2
к Указу Президента Республики Узбекистан
от 23 марта 2021 года № УП–6191

**ПЕРЕЧЕНЬ**
**государственных услуг, результаты оказания которых с 1 мая 2021 года по желанию граждан и субъектов предпринимательства доставляются посредством почтовой связи***

**1.** Проставление апостиля на официальных документах, исходящих из судов.

**2.** Проставление апостиля на официальных документах, исходящих из организаций сферы образования и науки.

**3.** Выдача дубликата документа об образовании.

**4.** Признание и нострификация документов об общем среднем и среднем, высшем образовании, выданных в зарубежных странах.

**5.** Признание и нострификация документов об ученых степенях, полученных в зарубежных странах.

**6.** Выдача направлений для льготного лечения в санаториях престарелым и лицам с инвалидностью, нуждающимся в постороннем уходе.

**7.** Выдача, замена и выдача новых водительских удостоверений вместо утерянных.

**8.** Выдача сертификата об отсутствии вируса иммунодефицита человека.

**9.** Выдача государственных регистрационных номерных знаков и регистрационных свидетельств на автомототранспортные средства и прицепы (полуприцепы).

**10.** Выдача транзитных государственных регистрационных номерных знаков на автомототранспортные средства и прицепы (полуприцепы).

**11.** Выдача направления на прием детей в государственные дошкольные образовательные организации.

**12.** Аккредитация лиц, проводящих экспертизу строительных проектов.

**13.** Выдача государственного ордера на право собственности.

НБДЗ: № 06/21/6191/0229
от 24.03.2021 г.



**14.** Государственная регистрация прав на объекты недвижимости и выдача выписки из реестра.

**15.** Государственная регистрация ипотеки и договора об ипотеке вещных прав на здания и сооружения.

**16.** Подготовка кадастрового дела и оформление кадастрового паспорта на объекты недвижимости.

**17.** Государственная регистрация прав ограниченного пользования чужим земельным участком (сервитут) и выдача выписки из реестра.

**18.** Выдача патента на изобретение.

**19.** Выдача патента на полезную модель.

**20.** Выдача патента на промышленный образец.

**21.** Выдача патента на селекционное достижение.

**22.** Выдача свидетельства о регистрации топологий интегральных микросхем.

**23.** Выдача свидетельства о праве пользования наименованием места происхождения товара.

**24.** Выдача свидетельства на товарный знак и знак обслуживания.

**25.** Обеспечение нуждающихся лиц протезно-ортопедическими изделиями, техническими средствами реабилитации и креслами-колясками.

**26.** Признание престарелого и лица с инвалидностью одиноко живущим или одиноким престарелым и лицом с инвалидностью.

**27.** Выдача документов регистрации актов гражданского состояния.

**28.** Выдача ордера для льготного контингента больных.

**В случае доставления результата оказания государственных услуг посредством почтовой связи оплата почтовых услуг производится за счет пользователя государственных услуг.*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1